

MAMALAKATIMIZDA INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISH HOLATI VA RAQAMLI IQTISODIYOT TIZIMLAR RIVOJLANISHINING MAMLAKAT IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIRI TAHLILI

Kaxorova Anora Nusratovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot fakulteti “Fundamental iqtisodiyot” kafedrasida assistenti

e-mail: kahorovaanora1991@gmail.com

Annotatsiya: *Bugungi kunning ilm-fan yutuqlaridan keng va samarali foydalanish, ishlab chiqarishda eng ilg’or va so’nggi avlod texnologiyalarini joriy etish, milliy iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida innovatsiyalarning rivojlanishiga e’tiborni yanada kuchaytirish uchun innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish orqali milliy amaliyot va yutuqlarimiz bilan yuqori darajalarga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan mavzu doirasida izlanish olib bordik. Jumladan mavzuga doir bo’lgan boshqa tadqiqot ishlari, ilmiy maqolalar, mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari hamda mavzuga oid me’yoriy hujjatlarni o’rgangan holda adabiyotlar sharhi tayyorlandi. Maqolamizning ahamiyatini oshirish maqsadida mamlakatimizda korxonalarining innovatsion salohiyatlari, xususan “Innovatsiya vazirligi” amalga oshirayotgan ishlar holati hamda ular bilan ishlash qay darajada amalga oshirilayotganligini statistik ma’lumotlar asosida tahlil usullari orqali o’rganildi.*

Kalit so’zlar: *Innovatsiyalar, innovatsiya jarayonlari, innovatsiyalarni investitsiyalash, innovatsion iqtisodiyot, global innovatsiyalar indeksi.*

Kirish.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Iqtisodiyotda boshqaruv tizimi eskirgani, innovatsion g’oyalarni qo’llab-quvvatlash bo’yicha samarali mexanizmlar o’z vaqtida joriy qilinmagani ham jiddiy muammo bo’lib qolmoqda. Shuningdek, texnologik qoloqlik, resurs va energiyani tejaydigan texnologiyalar, muqobil energiya manbalarini tatbiq etishning sustligi ham iqtisodiy taraqqiyot yo’lida to’siq bo’lmoqda” [Oliy Majlisga Murojaatnoma, 28.12.2018], deya ta’kidlab o’tgan.

Hozirgi vaqtda «Innovatsiya tushunchasi» juda keng qo’llanilmoqda. “Innovatsiya” tushunchasi birinchi marta XX asr boshlarida xorijlik madaniyatshunoslar ilmiy tadqiqotlarida paydo bo’lgan va qo’llanilgan bo’lib, bir madaniyatning ayrim elementlarining boshqasiga joriy etilishini bildirgan. Innovatsiya so’zi inglizcha so’z bo’lib – «innovatsion» yangilik kiritish degan ma’noni bildiradi, ya’ni tizim ichki tuzilishini o’zgartirish, deb ta’riflanadi. Innovatsiya amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo’lib, ijtimoiy- madaniy ob’ekt sifatlarini yaxshilashga yo’naltirilgan ijtimoiy sub’ektlarning harakat tizimidir.

O’zbekiston Respublikasida hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadlaridan biri iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta’minlash hisoblanadi. Buning uchun bazaviy sohalarda ishlab chiqarishni qayta qurollantirish, yangi va zamonaviy texnologiyalarni faol joriy qilish va modernizatsiyalashni jadallashtirish orqali tarmoqlar va hududlarda tuzilmaviy o’zgarishlarni amalga oshirish, ular o’rtasidagi o’zaro

bog‘liqlik va mutanosiblikni ta‘minlash, milliy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish lozimdir.

Adabiyotlar tahlili.

Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug‘ilib, ta‘lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo‘ladi. Shuningdek, umuman ta‘lim tizimi rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Innovatsiya – ma‘lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni echish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo‘llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishiga olib kelishi ma‘lum bo‘lgan oxirgi natijadir. Innovatsiya loyihalari – bunday loyihalarning asosiy maqsadi yangi texnologiyalar, nouxau va korxonalarining rivojlanishini ta‘minlab beruvchi boshqa yangiliklarni ishlab chiqish va qo‘llashdan iborat.

Jahon amaliyotida loyihaviy moliyalashtirish ostida ko‘pincha moliyalashtirishni tashkil qilishning shunday turi nazarda tutiladiki, unda loyihani sotishdan olingan daromadlar qarz majburiyatlarini to‘lashning yagona manbai bo‘ladi. Shunga qaramay har xil mamlakatlarda “loyihaviy moliyalashtirish” atamasi har xil talqin qilinadi. Masalan, AQSHda uning ostida moliyalashtirishni shunday tashkil qilish tushuniladiki, unda investitsion loyihalarning katta qismi ta‘sischining shaxsiy mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladi, loyihani sotishda daromad qarz majburiyatlarini to‘lashning yagona manbalaridan bo‘ladi.

Yevropada bu atama loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarni taqdim etishning har xil variantlari va yo‘llariga nisbatan qo‘llaniladi. Keyingi vaqtda “loyihaviy moliyalashtirish” atamasi ham banklar tomonidan taqdim etiladigan kreditlarga va ham vositali byudjetli qo‘llab-quvvatlashga, har xil davlat tashkilotlari, investitsion fondlar, sug‘urta kompaniyalari va boshqa manfaatdor sarmoyadorlarning qo‘llab-quvvatlashiga asoslangan moliyaviy va tijorat operatsiyalari tizimiga nisbatan qo‘llaniladi [Yo‘ldoshev N.Q. va boshqalar. «Innovatsion menejment». Darslik. TDIU. 2011 y. – 312 b].

Raqamli iqtisodiyot, i.f.d., professor Toshmatov Sh.A [Iqtisodiyotni raqamlashtirishning “yashil iqtisodiyot” bilan uyg‘unligi. “Davlat boshqaruvi va iqtisodiyotni raqamlashtirishning ustuvor yo‘nalishlari” mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi. Toshkent 2020 y. 503 b.-255 bet] ning fikricha, qisqa va lo‘nda quyidagicha ta‘riflanadi: iqtisodiyotga, iqtisodiy naf olish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha jarayonlarga raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi iqtisodiyotni raqamlashtirish yoki raqamli iqtisodiyot deb atash mumkin deb o‘z fikrini bildirgan.

Metodologiya.

Maqolada tizimli tahlil, statistik-iqtisodiy va ilmiy abstraktsiya, qiyosiy va tarkibiy tahlil hamda qator boshqa usullardan foydalanildi.

Natijalar va tahlil.

Mamlakatimizda innovatsion muhit holatini o‘rganish uchun avvalo Global innovatsiyalar indeksi ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahlil etishni lozim topdik. O‘zbekiston 2020-yilda GII bo‘yicha 93-pog‘onada bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib 86-pog‘onagacha ko‘tarilgan bu esa o‘tgan davrga nisbatan 7 pog‘ona oldinga siljiganini ko‘rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining GII yo'nalishlari bo'yicha natijalari

	Yo'nalishlar	Natija (ball)	Pog'ona
1.	Institutlar	55.8	94
2.	Inson kapitali va tadqiqotlar	30.4	72
3.	Infratuzilma	40.4	72
4.	Bozorning murakkabligi	56.9	24
5.	Biznes murakkabligi	14.8	123
6.	Biim va texnologiya natijalari	17.9	77
7.	Kreativlik natijalari	12.3	113

Manba: "Global Innovation Index 2021" nashri asosida muallif tomonidan tuzildi.

Global innovatsiyalar indeksini hisoblashda har bir mamlakat 7 yo'nalishda ko'rib chiqiladi hamda har bir yo'nalish ichida 3 ta bob va alohida kriteriyalar bo'yicha tahlil etiladi. O'zbekistonda kuchli deb topilgan ko'rsatkichlar bilan birga kuchsiz deb topilgan ko'rsatkichlar, bundan tashqari daromad guruhi kuchli va kuchsiz deb topilgan ko'rsatkichlar ham mavjud.

O'zbekistonda kuchli deb topilgan innovatsion iqtisodiyot ko'rsatkichlari quyidagilar: biznes boshlashning osonligi (96.2), ta'limga ajratilgan xarajatlarning YaIMga nisbatan ulushi (5.3), o'qituvchi va o'quvchilar nisbati (10.9), fan va muhandislik yonalishidagi bitiruvchilar ulushi (34.5), hukumatning onlayn xizmatlari (78.2), umumiy infratuzilma (35.7), minoritar investorlarni himoya qilish qulayligi (70.0), ichki sanoat diversifikatsiyasi (95.9), foydali modellar kelib chiqishi/mlrd PPP\$ YaIM bo'yicha (1.1), ishchi kuchi samaradorligi o'sishi foizda (4.6). 2020-yilda tashkilotlar tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari hajmini iqtisodiy faoliyat va ish turlari bo'yicha tahlil etadigan bo'lsak asosiy qism kasbiy, ilmiy va texnik faoliyatga tegishli ekanini ko'rishimiz mumkin. Undan keyingi o'rinlarda esa ta'lim va ishlab chiqarish sohalaridagi ishlanmalar hajmi bo'lib, ular mos ravishda 98 775.6 million so'm va 63 102 .8 million so'mni tashkil etgan.

1-rasm. O'zbekiston Respublikasining GII yo'nalishlari bo'yicha kuchsiz deb topilgan ko'rsatkichlar




Manba: "Global Innovation Index 2021" nashri asosida muallif tomonidan tuzildi.

2020-yil mobaynida jami 254 ta tashkilot ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar soni bo'yicha asosiy ulush kasbiy, ilmiy va texnik faoliyatda 155 ta, ta'limda 68 ta, ishlab chiqarish sanoatida 6 tani tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlarning innovatsion faoliyati bo'yicha 2020-yilda o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxonalar va tashkilotlar soni 6771 tani tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 2855 taga ortgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulush ishlab chiqarish sanoatida kuzatilib 2599 ta tashkilotda innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqarilgan. 2020-yilda joriy qilingan texnologik innovatsiyalarning iqtisodiy turlari bo'yicha tahlilini ko'rib chiqamiz. Joriy qilingan innovatsiyalarning 2359 tasi ishlab chiqarish sanoatiga to'g'ri kelganini ko'rishimiz mumkin. Bu ko'rsatkich jami joriy qilingan texnologik innovatsiyalarning 58.81% ini tashkil etadi.

2-rasm. 2020-yilda sektorlar bo'yicha ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar



Manba: Innovatsion Rivojlanish Vazirligi statistika ma'lumotlari

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlarni sektorlar kesimida ko'rib chiqadigan bo'lsak; davlat sektorida 108 ta, tadbirkorlik sektorida 79 ta, oliy ta'lim sektorida 65 ta va xususiy notijorat sektorda 2 ta tashkilot aks etgan.

Xulosa

Yangi iqtisodiyotning eng muhim xususiyati innovatsion jarayonlarni faollashtirish, ularning iqtisodiy o'sish omiliga aylanishidir. IHTT tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion sohaga investitsiyalar YaIM 1 dan 3 gacha, axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga 1 dan 2 gacha bo'lgan investitsiyalar o'sishiga olib keladi. Rivojlangan mamlakatlarda YaIM o'sishining 90 foizi, innovatsion va texnologik taraqqiyot bilan belgilanadi.

Hozirgi tezlikda rivojlanib borayotgan davrda an'anaviy iqtisodiyot bilan boshqa mamlakatlar bilan raqobatga kirishib bo'lmaydi. Buni dunyodagi kuchli rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlar misolida ham ko'rib chiqdik. Ular mablag'larining juda katta

qismini ilmiy tadqiqot ishlanmalariga, rivojlanishga yo‘naltiradilar, innovatsiyalarni amaliyotga tadbiiq etishni qo‘llab quvvatlaydilar.

Jahon miqyosida raqobatbardosh va fanga asoslangan iqtisodiyot kuchli ilmiy tadqiqot va rivojlantirish ekotizimining yaratilishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining barqaror o‘shishini kuchli ilmiy tadqiqot va rivojlanish ekotizimi ta‘minlab bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Toshmurodova B.E., Jiyanova N. Innovatsion faoliyatni moliyaviy rag‘batlantirish. O‘quv qo‘llanma. - T.: IQTISOD-MOLIYA, 2006. - B. 11.
2. Innovation Policy A Guide for Developing Countries. The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank. 1818 H Street, NW, 2010. - P.28.
3. Эндрю Харгадон «Управление инновациями. Опыт ведущих компаний» Учебник -М.: ООО «И.Д.Вильяма». 2007 - 304 с
4. Yo‘ldoshev N.Q. va boshqalar. «Innovatsion menejment». Darslik. TDIU. 2011 y. — 312 b
5. Toshmatov Sh.A. Iqtisodiyotni raqamlashtirishning “yashil iqtisodiyot” bilan uyg‘unligi. “Davlat boshqaruvi va iqtisodiyotni raqamlashtirishning ustuvor yo‘nalishlari” mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi. Toshkent 2020 y. 503 b.- 255 bet..
6. Atkinson, Robert D. Innovation economics : the race for global advantage Robert D. Atkinson and Stephen J. Ezell. USA: Yale University Press, 2012.
7. Y.E. Aliev. Innovatsion iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2019-yil, 236 bet.
8. The Global Innovation Index 2021. World Intellectual Property Organization 34, chemin des Colombettes, P.O. Box 18 CH-1211 Geneva 20, Switzerland
Internet saytlari:
9. <https://lesroches.edu/blog/switzerland-global-superpower-innovation/>
10. <https://www.wipo.int/>
11. <https://lex.uz/>
12. <https://mininnovation.uz/>
13. <https://stat.uz/>